

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

FAYZULLAYEV AZIZ HUSAN O'G'LI

**AFG'ONISTON VA TURKIYA RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI
DAVLATLARARO MUNOSABATLAR (2001-2023 yy.)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UDK 327.82 (560+581)

ББК – 66.0

F – 17

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy
(PhD) in Historical science**

Fayzullayev Aziz Husan o'g'li

Afg'oniston va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar
(2001-2023 yy)

..... 3

Файзуллаев Азиз Хусан угли

Межгосударственные отношения между Афганистаном
и Турецкой Республикой (2001-2023 гг)

..... 27

Fayzullaev Aziz Khusan ugli

Interstate relations between Afghanistan and the Republic of Turkey
(2001-2023)

51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

FAYZULLAYEV AZIZ HUSAN O'G'LI

**AFG'ONISTON VA TURKIYA RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI
DAVLATLARARO MUNOSABATLAR (2001-2023 yy.)**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar1149 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portal (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaydarov Abdusamat Axatovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov Mirzoxid Akromovich
tarix fanlar doktori, professor

Rashidov Rustam Rasulovich
harbiy fanlar doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (__ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; e-mail: info@tashgiv.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «__» _____dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Is'hoqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

N.R. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.B. Shadmanova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
tarix fanlari doktori, professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Zamonaviy dunyoda tobora kengayib borayotgan qarama-qarshiliklar hamda transmilliy tahdidlar geografiyasi xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlashni taqozo etmoqda. Janubiy Osiyo mintaqasida joylashgan Afg'oniston va ushbu mintaqada sodir bo'layotgan geosiyosiy jarayonlar xalqaro munosabatlarning epitsentriga aylanib bormoqda. Ushbu mintaqadagi so'ngi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar transformatsiyasi natijasida radikalizm, inson huquqlarining buzilishi va noqonuniy qochqinlar oqimi shakllangan bir paytda, mintaqada xususan, turkiy davlatlar tashqi siyosatida Afg'oniston bilan ratsional aloqalarni rivojlantirish, yirik iqtisodiy loyihalar va transport yo'laklarini takomillashtirish ustida konstruktiv hamkorlik olib borilayotganligi Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy tuzilmalari oldiga yirik kuch markazlarining Afg'oniston borasidagi yondashuvlariga doir tajribalarini o'rganish va mavjud bilimlarni rivojlantirish kabi dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

O'zbekiston va Turkiyaning Afg'onistonga nisbatan zamonaviy yondashuvlari ko'p jihatdan o'xshash va uyg'un. Afg'oniston-Turkiya munosabatlarni o'rganish, Turkiyaning Afg'onistondagi ta'sirini baholash, mintaqada barqarorlikni ta'minlashda rasmiy Anqaraning rolini tahlil qilish dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlaridan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Afg'onistonning iqtisodiy ahamiyati va "Bir makon – bir yo'l" loyihasida uning ishtiroki, mintaqada davlatlarini Hind okeaniga olib chiqishda Afg'onistonning geostrategik qulay joylashuvi bilan birgalikda Afg'onistonda sodir bo'layotgan gumanitar inqiroz, radikallashtirishning kuchayishi va transchegaraviy suv ta'minoti borasidagi ba'zi qadamlarning Markaziy Osiyo xavfsizligiga ehtimoliy ta'siri kabi dolzarb masalalar qator ilmiy tadqiqotlar va nufuzli tahlil markazlari doirasida tadqiq qilinmoqda.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan pragmatik tashqi siyosat natijasida so'ngi bir necha yil ichida Afg'oniston muammosini hal etish, gumanitar inqirozni bartaraf qilish hamda o'zaro manfaatli xalqaro aloqalarni kengaytirish, jumladan, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash maqsadida bir qancha tashabbuslar ilgari surilmoqda. 2022-yil 26-27-iyul kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" mavzusidagi xalqaro konferensiya Afg'oniston muammosi mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini yana bir karra tasdiqladi. Darhaqiqat, bizga qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikda faol ishtirok etuvchi tinch va barqaror Afg'oniston kerak¹. Shu nuqtai nazardan, Afg'onistonning barqarorligi butun mintaqada, xususan O'zbekiston uchun qo'shnilar bilan istiqboldagi faol iqtisodiy va madaniy integratsiyaning kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-mayda qabul qilingan "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada

¹ "Bizga qo'shnilari bilan iqtisodiy hamkorlikda faol ishtirok etadigan, tinch va barqaror Afg'oniston kerak" — Shavkat Mirziyoyev <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/03/afghan/>

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yilning 11-sentabridagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi va 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4680-sonli qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, uning geosiyosiy ahamiyati, Afg'onistonning turkiy dunyo, jumladan Turkiya bilan hamkorlik munosabatlari xorijning turli ilmiy markazlari, oliy ta'lim muassasalari va yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlarida atroflicha o'rganilib, bizning o'rganish va tahlillarimizga manba bo'lib xizmat qildi. Afg'on-turk munosabatlariga oid turli manbalar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ularni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratdik:

Birinchi guruhga, S.Safoyev, A.Xaydarov, S.Bo'ronov, R.Rashidov, Sh.Akmalov, A.Umarov, N.Tulyaganova², kabi bir qator mahalliy tarixchi va siyosatshunoslarning asarlari kiradi. Ular o'zlarining ilmiy izlanishlarida Afg'oniston muammolarini yetarlicha batafsil yoritishgan. Biroq bu mavzudagi tadqiqotlar jarayonida ma'lum bo'ldiki, mahalliy tarixshunoslikda afg'on-turk munosabatlari muammolarini bevosita o'rganuvchi ilmiy adabiyotlar va fundamental tadqiqotlar kam. Bu sanoqli ishlar qatoriga Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining xalqaro aloqalar kafedrasida dotsenti A.Umarovning zamonaviy Afg'oniston-Turkiya munosabatlari haqidagi ayrim maqolalari kiradi. Xususan, tadqiqotchi Turkiya Afg'onistonda "yumshoq kuch"dan foydalanishda

² Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: Patent press, 2005. – 160 b; Хайдаров А.А. Мусульманское духовенство vs власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана // Мир и безопасность, 2020. Vol 20. № 4 – С.747-762; Хайдаров А.А. Штрихи к причинам и последствиям падения правительства А. Гани в Афганистане // Вестник Учёных-международников, 2023. №1. – С.84-104; Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati. – Toshkent: Effect-D, 2021. – 204 b; Rashidov R.R. Афғон давлатчилиги шаклланишига халқаро ва минтақавий жараёнларнинг таъсири. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. – 48 б; Rashidov R.R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. – Toshkent: Navruz, 2017. – 263 b; Akmalov Sh.I. Uzbekistan's Role in Stability and Development of Afghanistan // Policy Perspectives, 2009. Vol. 6, №. 1. – P.115-120; Акмалов Ш.И. Проблема афганского урегулирования в современных пакистано-иранских отношениях. Дисс. канд. пол. наук, – Т., 2002. – 171 с; Akmalov Sh.I. Афганистан в современной системе международной безопасности // Центральная Азия и Кавказ, 2009. Vol 6. № 66. – С.21-27; Umarov A.A. Фактор Афганистана в региональной безопасности Центральной Азии в начале XXI века. Автореф. дис. док. философии (PhD) по пол. наук. – Т.: 2017; Афганистан и региональная безопасность Центральной Азии: начало XXI века. – Т.: УМЭД, 2017; Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. –Т.:Фан, 2004; Афганский конфликт и его последствия в контексте становления новой системы безопасности в Центральной Азии. Автореф. дисс. док. пол. наук. – Т., 2006;

hozirgacha ancha faol bo'lganini va o'zining vositachilik qiyofasini shakllantirish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirganini alohida ta'kidlaydi³.

Ikkinchi guruhga xorij tadqiqotchilarining ilmiy ishlarini kiritish mumkin bo'lgan holda, ularni uch yo'nalishga ajratib tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi yo'nalish, post-sovet hududidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olib, S.M.Akimbekov⁴, V.Y.Belokrenitskiy⁵, Y.V.Bosin⁶, A.Gajiyev⁷, Y.P.Laletin⁸, A.G.Maryasov⁹, A.Knyazev¹⁰, S.B.Drujilovsky¹¹, A.A.Sotnichenko¹² lar Afg'oniston muammosi, uning mintaqadagi barqarorlikka ta'siri, Afg'onistondagi etno-siyosiy va konfessiyaviy munosabatlar haqida chuqur o'rganishgan. Shuningdek, ushbu olimlarning tadqiqotlarida Afg'oniston va Turkiya munosabatlarining turli jihatlari, savdo va iqtisodiy hakorlik aloqalarining ba'zi xususiyatlari haqida to'xtalib o'tilgan. K.R.Ishbuldina¹³, G.G.Machitidze¹⁴, A.I.Alieva¹⁵, I.A.Svistunova¹⁶, I.I.Ivanov¹⁷, Sh.Sh.Rizoyon va M.F.G'iyosov¹⁸ kabi olimlar esa bevosita ikki davlat o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarga bag'ishlangan ilmiy ishlarida Afg'oniston hamda Turkiya hamkorlik aloqalarining hozirgi holatini yoritishgan. Xususan, Lomonosov nomidagi Moskva davlat

³ Умаров А.А. Политика Турции в Афганистане // Азия и Африка сегодня, 2017. №7. – С. 50-56

⁴ Акимбеков С.М. Афганский узел и проблемы безопасности Центральной Азии. – Алматы, 2003. – 400 с.

⁵ Белокреницкий В.Я. Афгано-пакистанский пуштунский пояс – ареал небезопасности в зоне конфликта [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.iimes.ru/?p=14259>; Белокреницкий В.Я. Афганистан: проблемы войны и мира // Выпуск 3. – М., Институт востоковедения РАН, 2000. – С. 123– 131.

⁶ Босин Ю.В. Афганистан: Полиэтническое общество и государственная власть в историческом контексте. – М.: Издательство «Гуманитарий» Академия гуманитарных исследований, 2002. – 232 с.

⁷ Гаджиев А.Г. Турция: от политики «ноль проблем с соседями» к политике «хочешь мира, готовься к войне»? [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.iimes.ru/?p=15262>

⁸ Лалетин Ю.П. Трансафганский газопровод как фактор интеграции Афганистана в Большую Восточную Азию // Сравнительная политика, 2010. № 1, – С. 144–165.

⁹ Марьясов А.Г. Афганская проблема в региональной политике соседних стран Среднего Востока и Центральной Азии // Афганистан: война и проблемы мира. – М., ИВ РАН, 1998. – С. 147–155.

¹⁰ Князев А.А. К истории и современному состоянию производства наркотиков в Афганистане и их распространения в Центральной Азии. – Бишкек: Илим, 2003. – 70 с. Князев А.А. Талибы возвращаются // Международные процессы. Журнал теории международных отношений и мировой политики. – М.: МГИМО, 2009, Том 7, № 1(19). – С.134-140; Князев А.А. Афганские события весны-лета 2021 г. и обновленная региональная безопасность // Постсоветские исследования. – СПб, 2021. № 4. – С.456–469.

¹¹ Дружиловский С.Б. О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока (Иран, Афганистан, Турция) // Ислам и политика. – М.: ИВ РАН, «Крафт+», 2001. – С. 60–69.

¹² Сотниченко А.А. Турция: геополитическая ось Евразии // Геополитика Информационноаналитическое издание. Вып. IX. – М., 2011. – С. 4–14.

¹³ Ишбулдина К.Р. Афгано-Турецкие отношения на современном этапе (2001–2018 гг.). дисс.кан.ис.наук – Москва, 2019. – 200 с.

¹⁴ Мачитидзе Г.Г. Турция – “Талибан”: Алгоритмы взаимодействия // Мировая экономика и международные отношения. Т.67, № 3. 2023.– С.67-78; Мачитидзе Г.Г. Политика Турции в отношении международного терроризма в контексте внутренней исламизации // Международные процессы. — 2021. — Т. 19. №3(66). — С. 85-103.

¹⁵ Алиева А.И. Афганская стратегия Турции: содействие безопасности и развитию // Вестник МГИМО. №2 (47), 2016. – С. 80–90.

¹⁶ Свистунова И.А. О политике Турции в отношении Афганистана // Институт Ближнего Востока. 21.01.2011 [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.iimes.ru/?p=11997>

¹⁷ Иванова И.И. Турецко-афганские отношения на современном этапе // Афганистан 2010 / Отв. ред. У.З. Шарипов. – М.: ИВ РАН, 2010. – С. 175–196; Иванова И.И. Отношения Турции с Афганистаном и Пакистаном // Турция в условиях новых внутренних реалий / Отв. ред.: Н.Ю.Ульченко, Е.И.Уразова. – М.: ИВ РАН, 2010. – С. 213–227.

¹⁸ Ризоён Ш., Ш. Гиёсов М. Ф. Афганистан до и после возвращения Талибан. Монография. – Душанбе: Дониш, 2023. – 509 с.

universiteti tadqiqotchisi Aliyeva Altunay o'zining "Turkiyaning Afg'on strategiyasi: xavfsizlik va taraqqiyotga yordam" nomli maqolasida Turkiya tashqi siyosatida Afg'onistonning ahamiyati 2000-yillarga kelib nihoyatda o'sganligini ta'kidlagan.

Tojikistonlik olimlar Sh.Rizoyon va M.G'iyosov monografiyasida "Tolibon"ning hokimiyat tepasiga kelishi mintaqa davlatlari va yirik kuch markazlarining tashqi siyosatiga qanday ta'sir qilganligi o'rganilgan. Monografiyaning Turkiya va Afg'oniston munosabatlariga bag'ishlangan qismida Turkiyaning "Tolibon" bilan hamkorlikda ehtimoliy ustunliklari ko'rib chiqilgan. Masalan, Turkiya "Maorif" jamg'armasiga tegishli turk-afg'on maktablari orqali "Tolibon"ga bilvosita ta'siri haqida so'z boradi.

Ikkinchi yo'nalish, uzoq xorij olimlarining tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. bu borada Yevropa va Amerikaning mashhur olimlaridan Z.Bjezinskiy, A.Vendt, F.Fukuyam, B.Buzan, G.Kissinjer, S.Xantington¹⁹ kabi olimlarning xalqaro munosabatlarning muhim masalalariga bag'ishlangan bir qator yirik ilmiy asarlarini keltirib o'tish mumkin. Ular o'z ishlarida Afg'onistonning geosiyosiy joylashuviga urg'u bergan holda, sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro terrorizmning jilovlanishi kabi ekzestensial masalalarda uning rolini qayd etib o'tishgan. Ushbu tadqiqotlar xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan holda mazkur ilmiy tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Afg'onistonning siyosiy, diniy va etnik muammolarini atroflicha yoritgan xorijilik tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan ingliz sharqshunosi va diplomati P.Sayks, amerikalik tadqiqotchi L.Adamek, Nyu-York universiteti qoshidagi Xalqaro hamkorlik markazi direktori va katta ilmiy xodimi B.Rubin, pokistonlik ekspert A.Rashid kabi olimlarning ilmiy adabiyotlari katta ahamiyatga ega²⁰.

Ushbu mavzuga doir uchinchi guruhga bevosita turk va afg'on tadqiqotchilarining ilmiy adabiyotlarini kiritishimiz mumkin. Jumladan, A.Varlik²¹, N.Karachasulu²², S.Dogan²³, M.Eksi²⁴, K.Kaya²⁵, A.Muhammadiy²⁶,

¹⁹ Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и геостратегические императивы. – М.: Международные отношения, 1999. – 256 с; Wendt A.E. The Agent-structure Problem in International Relations Theory // International Organizations, Vol.1 41(3), 1987. – P.335-370; Fukuyama F. Nation Building Beyond Afghanistan and Iraq. – The John Hopkins University Press, Library of Congress Cataloging-in-Publication Data, 2006. – 255 p; Buzan B., Waever O. Region And Power The Structure Of International Security, UK: Cambridge University Press, 2004. – 588 p; Киссинджер Г. Дипломатия. – М.: Ладомир, 1997. – 848 с. О'sha muallif. Мировой порядок. – М.: AST Publishers, 2015. – 268 с; Хантингтон С.Ф. Столкновение цивилизаций. – М.: Издательство АСТ, 2003. – 605 с.

²⁰ Sykes P.M. A history of Afghanistan. V. 2. – Macmillan, 1940. – 414 p; Adamek L.W. Afghanistan, 1900–1923: A Diplomatic History. – Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1967. – 245 p; Rubin B.R. Afghanistan in the Post-Cold War Era. – OUP USA, 2013. – 504 p; Rubin B.R. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System. – Yale University Press, 2002. – 378 p; Rashid A. Descent Into Chaos: The U.S. and the Disaster in Pakistan, Afghanistan, and Central Asia. – Penguin Books, 2009. – 560 p; O'sha muallif. Jihad: The Rise of Militant Islam in Central Asia. – Yale University Press, 2002. – 271 p.; O'sha muallif. Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. –Yale University Press, 2001. – 274 p;

²¹ Varlik A.B. Winning Peace: A Mere Dream or An Achievable Objective? Inferences from Turkish Peacekeeping Experience in Afghanistan // Orta Asya ve Kafkasya Arařtırmaları. Vol.7, No. 14, 2012. – P. 93–124.

²² Karacasulu N. Reconstruction of Afghanistan and the role of Turkey // OAKA Cilt 5, Say 10, 2010 – P. 40–58.

²³ Doğan S. Turkey's Foreign Policy in Afghanistan in the Post-9/11 Era: A Non-Military Approach // The Depth of Turkish Geopolitics in the AKP's Foreign Policy: from Europe to an Extended Neighbourhood / Ed. by A.Chiriatti

Z.Sarixon²⁷, S.A.Özjon²⁸, C.B.Çubuk²⁹ kabi turk olimlari ikki davlat munosabatlarining alohida masalalari bilan shug'ullanganlar. Ushbu yo'nalishda Turkiya Respublikasi Bosh shtabining harbiy tarix va strategik tadqiqotlar bo'limi tomonidan nashr etilgan "O'tmishdan hozirgi kungacha Turkiya Afg'oniston munosabatlari³⁰" asarida ikki davlat munosabatlari 1747-yilda mustaqil Afg'on davlati tuzilishi bilan boshlangani, Omonullaxon va Mustafa Kamol Otaturk davrida eng oliy darajaga ko'tarilgani hamda R.T.Erdog'an va AK partiyasi zamonida bu munosabatlar qayta jonlanganini ta'kidlab, munosabatlar dinamikasini ko'rsatib bergan. Ikki davlatning munosabatlarini tarixiy-retrospektiv usullar asosida yoritgan yana bir ilmiy ish M. Ko'cherga tegishli bo'lib, unda Afg'onistonning modernizatsiya jarayonida Turkiyaning hissasi ochib berilgan³¹. Turkiyaning tashqi siyosatida Afg'onistonning o'rni va uning geosiyosiy ahamiyati, shuningdek, birinchi "Tolibon" ma'muriyatining tahlil boshqaruvi davridagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilishda Turkiyaning Afg'onistondagi sobiq elchisi B.Kankorelning³² "Diplomatning sayr kundaligi" nomli xotiralari shaklida tuzilgan memuar asari katta ahamiyatga ega.

Afg'oniston rasmiy vakillari, olimlar va ekspertlarning ham mazkur munosabatlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari mavjud bo'lib, ularga Afg'onistonning sobiq Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari A.S.Gausning 1978-yilda Dovutxon rejimi qulagunigacha bo'lgan Afg'onistonning tashqi siyosati haqidagi kitobi³³, H.Kokarning afg'on davlatchilik masalasi va unda turli etnoslar qatorida turklarning ham roli ko'rib chiqilgan tadqiqotlari³⁴, G'.M.G'uborning Afg'oniston tarixiga bag'ishlangan uch jildli kitoblar to'plami³⁵, Z.Xalilzodning milliy afg'on yarashuvilariga doir Doha uchgrashuvlari va unda Turkiyaning ishtiroki tilga olingan kitoblari³⁶, M.Attining Afg'onistonning zamonaviy tarixiga bag'ishlangan asarlari³⁷, L.Odmakning "II jahon urushigacha Afg'oniston tashqi aloqalari³⁸" nomli tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, X.Ko'hmand,

E.Diodato, S.Doğan, F.Donelli and B.Yılmaz. – Università per Stranieri di Perugia, 2014. – P. 52–68; Doğan S. International Aid to Afghanistan and Its Importance in the Post-2014 Era // Caucasus International. Vol. 3. No. 3, 2013. – P. 71–81.

²⁴ Eksi M. Turkey's Increasing Role in Afghanistan // Journal of Global Analysis, July 2010. – P. 141–151.

²⁵ Kaya K. Turkey's Role in Afghanistan and Afghan Stabilization // Military Review, 2013. – P. 23–30.

²⁶ Mohammadi A. Afganistan'in Modernleşmesinde Türkiye'nin Rolü // Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic. Vol. 9/5. – Ankara, 2014. – S. 1599–1611.

²⁷ Sarıhan Z. Kurtuluş savaşımız'da Türk-Afgan ilişkileri. – İstanbul: Kaynak, 2002. – 280 s.

²⁸ Özcan S.A. Turkish Foreign Policy towards Afghanistan: 2009–2010. Perceptions. Autumn. Winter 2010.Vol. XV. No. 3–4. – P. 133–146.

²⁹ Çubuk C.B. Turkey's role in Afghanistan in the post 9/11 era/ M.S., Department of International Relations. Supervisor: Dr. Işıl Anıl, May 2014. – 147 p.

³⁰ Geçmişten Günümüze Türk Afgan İlişkileri / Genelkurmay Askeri Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları. – Ankara, 2009. – 212 s.

³¹ Köçer M. Türk – Afgan ilişkileri (Emanullah dönemi 1919-1929). – Adana: Manas yayıncılık, 2009. – 336 s.

³² Cankorel B. Bir Dönem Biterken - Bir Diplomatın Seyir Defteri. – İstanbul, 2014. – 368 s.

³³ Ghaus A.S. The Fall of Afghanistan An Insider's Account. – New York, 1988. – 219 p.

³⁴ ۱۱۵. کاکر محمد حسن. افغانستان و تشکیلات دولت در هندوستان، فارس و افغانستان. – کابل: دانشگاهی کابل، ۱۳۵۷ (۱۹۷۸). ص. ۳۱۲. کاکر محمد حسن. سفر به وطن. طالبان و بنیادگرایی اسلامی. کابل: شرکت کتاب شاه محمود، ۱۳۹۰ (۲۰۱۱). ص. ۳۳۲.

³⁵ میر غلام محمد غبار. افغانستان در مسیر تاریخ. کابل: انتشارات محسن، ۲۰۱۹. ص. ۳۳۲.

³⁶ زلمی خلیل زاد. فرستاده – نشر عازم. ۲۰۱۵. ص. ۳۷۰.

³⁷ نگاهی مختصر به تاریخ معاصر افغانستان / نویسنده محمد ابراهیم عطایی؛ مترجم جمیل الرحمن کامگار

³⁸ لودیک آدمک. روابط خارج افغانستان (در نیمه اول قرن بیست). کابل: انتشارات سعید، ۲۰۰۹. ص. ۴۷۷.

O.Nessar, T.Exlos³⁹ kabi afg'onistonlik ekspertlarning ilmiy ishlarida afg'on-turk munosabatlarining ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Eronlik M.A.Tariq, R.Simbar, S. Bahrami⁴⁰ kabi eronlik tadqiqotchilar Turkiyaning 2001-yildan keyin Afg'onistondagi aqlli diplomatiyasini (smart diplomacy) o'z tadqiqotlarida mukammal ochib bergan.

Dissertatsiyani tayyorlash bosqichlarida yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy xulosalari va konseptual mulohazalari atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli "Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri", A-1-191 raqamli "Xorijiy tillarda tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish" mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 2001-2023 yillar oralig'idagi Afg'oniston-Turkiya davlatlararo munosabatlarining shakllanish va rivojlanish tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Afg'oniston va Turkiya munosabatlarini nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilish;

ikki davlat hamkorlik jarayonlarining tarixiy ildizlari, munosabatlarning dinamikasi, shingdek hamkorlikning huquqiy asoslari va ustuvor yo'nalishlarini ochib berish;

mintaqadagi xavfsizlik muammolarini hal qilish kontekstida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishning xarakterli xususiyatlarini aniqlash;

Turkiyaning Afg'onistondagi "yumshoq kuch" siyosatining mohiyatini o'rganish;

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Turkiyaning Afg'oniston masalasida o'xshash va alohida yondashuvlarini taqqoslash;

afg'on-turk munosabatlari tashqi siyosatining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqish;

Afg'oniston bo'yicha O'zbekistonning tashqi siyosiy pozitsiyasini shakllantirish maqsadida afg'on-turk munosabatlari rivojlanishining Markaziy Osiyo xavfsizligiga ta'sirini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy davrdagi Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari belgilangan.

³⁹ Кохманд Х. Международные аспекты урегулирования конфликта в Афганистане. Автореф. дисс. канд. пол. наук. – М.: 2012; Нессар О. История политического развития современного Афганистана (2001-2014 гг.). Автореф. дисс. канд. истор. наук. – М.: 2016; Эхлас Т. Афганский кризис и проблемы его урегулирования (1988-2009 гг.). Автореф. дисс. канд. истор. наук. – М.: 2010; Спозмей В. Особенности становления государственности в Исламской Республике Афганистан на современном этапе. Дисс. канд. пол. наук. – М.: 2015.

⁴⁰ م.ع. طارق، ر.سيمير، س.ب.مقدم، بررسي سياست هوشمند تركيه در افغانستان: با تاكيد بر عوامل داخلي و بين المللي از ۲۰۰۱ تا ۲۰۲۲ // فصلنامه مطالعات بين المللي. سال ۲۰. شماره ۴، ۲۰۲۳. - ص. ۲۹۱ - ۳۱۱.

Tadqiqot predmetini Afg'oniston-Turkiya munosabatlarning rivojlanish dinamikasi, unga ta'sir etuvchi omillar hamda Turkiyaning afg'on muammosini hal etishga qaratilgan yondashuvlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoviy-xronologik, tarixiylik, qiyosiy va tizimli tahlil, kompleks va fanlararo yondashuv, taqqoslash va intervyu usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turkiyaning Afg'oniston bilan tarixiy aloqalari, diniy mushtarakligi, uning Afg'onistonda amalga oshirgan iqtisodiy loyihalari ahamiyati, qolaversa, Turkiyaning NATO dagi rolidan kelib chiqib, G'arb davlatlari va Tolibon o'rtasida muzokaralarni yo'lga qo'yish uchun Turkiya eng maqbul nomzod ekanligi asoslab berilgan.

Afg'oniston iqtisodini qayta tiklash va uni xalqaro tan olinishiga erishishda jahonning yirik kuch markazlari va mintaqa davlatlari o'rtasida yagona konsensus ishlab chiqishda Turkiyaning tashabbusi bilan tashkil qilingan va hozirda to'xtab qolgan, "Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni" nomli yirik mintaqaviy tuzulma faoliyatini qayta tiklash zarurligi uning tarixiy muvaffaqiyatlari bilan dalillangan.

Afg'oniston Tolib hukumati bilan har tomonlama samarali va pragmatik yondashuvlarni ishlab chiqishida O'zbekiston o'zining "yumshoq kuch" strategiyalarini yaratishi va bu borada Turkiyaning TIKA (ijtimoiy loyihalar), Yunus Emro instituti (turk tili va madaniyatini targ'ib qilish), "Maorif" (ta'lim tizimi) fondlarining amaliy tajribalaridan foydalanish samarali natijalarga olib kelishi asoslab berilgan.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarning murakkab kontekstida Afg'oniston masalasida Turkiya va turkiy dunyoning boshqa asosiy davlatlari bilan "Turkiy davlatlar tashkiloti va Afg'oniston" ("6+1") formatidagi xavfsizlik, siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar integratsiya aloqalarini ta'minlash va rivojlantirish bo'yicha tomonlar o'rtasida dialoglarni yo'lga qo'yish lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda Turkiya va Afg'oniston munosabatlari tarixiy, diniy va madaniy jihatlar bilan birga ikki davlat mustaqilligining bir birlari tomonidan tan olinganligi XX asr musulmon sharqidagi xalqaro munosabatlarning muhim hodisasi ekanligi, Afg'onistonning jahon va mintaqaviy integratsiyasi tarixidagi ilk xalqaro paktlarni aynan Turkiya ko'magida imzolaganligi rasmiy Anqaraning afg'on muammosi bo'yicha ulkan tajribaga ega ekanligi asoslangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg'oniston masalasi bo'yicha yondashuvlari Turkiyaning bu boradagi tashqi siyosiy qarashlari bilan uyg'unligi tahliliy jihatdan o'rganilgan holda O'zbekiston Respublikasining Afg'oniston mojarosini hal qilish bo'yicha samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishiga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyani yozishda zamonaviy tarix fanida e'tirof etilgan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar, davriy matbuot va internet nashrlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, respublika miqyosidagi va xalqaro darajadagi ilmiy konferensiyalar materiallarida, jurnallar va xorijda o'tkazilgan anjumanlarda

e'lon qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyaning xulosalari va natijalari o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza va maxsus kurslarni tayyorlashda hamda ilmiy va o'quv faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ularning mamlakat tashqi siyosatiga tegishli tahliliy ma'lumotlar tayyorlashda, sharqshunos va xalqaro munosabatlar sohasi uchun professional mutaxassislar tayyorlash borasida, qolaversa, O'zbekiston Respublikasining Janubiy va Markaziy Osiyo hamda Yaqin Sharqdagi tashqi siyosiy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat vazirliklari va idoralari faoliyatida, shuningdek, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Afg'onistonning Turkiya Respublikasi bilan davlatlararo munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Turkiyaning Afg'oniston bilan tarixiy aloqalari, diniy yaqinligi, uning Afg'onistonda tinch hayotni tiklash borasida amalga oshirgan loyihalarining ahamiyati, qolaversa, Turkiyaning NATO dagi ishtirokidan kelib chiqib, G'arb davlatlari va Tolibon o'rtasida muzokaralarni yo'lga qo'yish uchun Turkiya eng maqbul nomzod ekanligi kabi xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 31-maydagi 01-18-18/8427-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar va takliflar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Afg'oniston iqtisodini qayta tiklash va uni xalqaro tan olinishiga erishishda jahonning yirik kuch markazlari va mintaqa davlatlari o'rtasida yagona konsensus ishlab chiqishda Turkiyaning tashabbusi bilan tashkil qilingan va hozirda to'xtab qolgan, "Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni" nomli yirik mintaqaviy tuzulma faoliyatini qayta tiklashga ehtiyoj sezilayotganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Tarixiy savol" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradio-kompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali tomonidan berilgan 2024-yil 15-iyuldagi 06-28-846-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuv Turkiyaning Afg'on mojarosini hal qilish bo'yicha tarixiy va zamonaviy strategik faoliyatlari, Turkiyaning mintaqadagi "yumshoq kuch" siyosatining ko'lami hamda uning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik va aholiga ilmiy tarzda yetkazishga xizmat qilgan.

Afg'oniston Tolib hukumati bilan har tomonlama samarali va pragmatik yondashuvlarni ishlab chiqishida O'zbekiston o'zining "yumshoq kuch" strategiyalarini yaratishi va bu borada Turkiyaning TIKA (ijtimoiy loyihalar), Yunus Emro instituti (turk tili va madaniyatini targ'ib qilish), "Maorif" (ta'lim

tizimi) fondlarining amaliy tajribalaridan foydalanish samarali natijalarga olib kelishi mumkinligi haqidagi ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarini tashkil etishda foydalanilgan. (Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 12-iyuldagi 14-07-1165-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotda keltirilgan xulosa va takliflar Qo‘mitaning O‘zbekiston turk milliy madaniy markazi bilan hamkorlikdagi madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishga xizmat qilgan.

Afg‘oniston masalasida Turkiya va turkiy dunyoning boshqa asosiy davlatlari bilan “Turkiy davlatlar tashkiloti va Afg‘oniston” (“6+1”) formatidagi xavfsizlik, siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar integratsiya aloqalarini ta‘minlash va rivojlantirish bo‘yicha tomonlar o‘rtasida dialoglarni yo‘lga qo‘yish lozimligi haqidagi ilmiy xulosalar va uni amalga oshirish borasidagi taklif va tavsiyalari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” amaliy tashabbuskor loyihasi doirasida foydalanilgan. (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti IL-5221091507 “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” mavzusidagi amaliy loyihaning 2024-yil 28-iyundagi 01-04-01/1448-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan ma‘lumotlar loyiha doirasida chop etilgan tahliliy materiallarni tayyorlashga va tegishli tashkilotlarga taqdim etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, respublika miqyosida 4 ta va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda beshta maqola (ulardan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, sakkizta paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning tadqiqot qismi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi va e'lon qilingan ishlar bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning tarixiy-nazariy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida ikki davlat hamkorlik masalalarining tarixiy xususiyatlari va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan. Turkiyaning Afg'onistonni modernizatsiya qilish va mintaqa davlatlari bilan integratsiya jarayonlarini kuchaytirish masalasidagi tarixiy faoliyatlari fundamental tadqiqotlar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning **“Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarni o'rganishning nazariy-konseptual jihatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida ikki mamlakat diplomatik aloqalari evolyutsiyasi ijtimoiy konstruktivizm hamda mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasi nazariyalari asosida ochib berilgan. Ushbu siyosiy qarashlar ilmiy tadqiq etilishi natijasida realizm va liberalizm zamonaviy davrdagi xalqaro hamjamiyat munosabatlarini jumladan, Turkiya va Afg'oniston munosabatlarini ham to'liq ochib berishga qodir emas degan xulosaga kelingan. Bu o'rinda boshqa nazariy qarashlarga ehtiyoj borligi izohlangan. Masalan, ijtimoiy konstruktivizm nazariy qarashlarining muallifi Aleksandr Vendt xalqaro munosabatlarda realistik nazariyaning ahamiyatini inkor etmagan holda xalqaro tuzilmalar nafaqat moddiy, balki jamiyatning g'oyaviy omillari tufayli ham shakllanishini va ushbu omillar ko'pincha uzoqroq va chuqurroq ta'sirga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy konstruktivizmga doir adabiyotlarda keltirilishicha mamlakatlarning diniy, madaniy va etnik omillarga ko'ra bog'liqligi yoki o'xshashligi davlatlarning tashqi munosabatlariga biz o'ylaganimizdanda chuqurroq ta'sir qiladi. Konstruktivistlar xalqaro munosabatlarda me'yorlar, g'oyalar, bilim va madaniyat kabi nomoddiy omillarning o'rnini tekshirishga e'tibor qaratdilar⁴¹. Jumladan, Turkiya mustaqillik arafasida ingliz va yunonlarga qarshi kurashgan davrda, afg'onlarning ham asosiy raqibi sifatida inglizlarning namoyon bo'lishi ushbu ikki xalqda ijtimoiy konstruktivizm elementi bo'lmish “yagona taqdir” hissini paydo qilgan. Shu sababli ushbu davr Turkiya va Afg'onistonning yaqinlashuvi uchun zamin yaratgan.

Asli avstriyalik siyosatshunos Jon Ruggi konstruktivizmni “inson onginging xalqaro hayotdagi aksi” deb ta'riflaydi. Unga ko'ra siyosiy liderlarning o'zaro bir-biriga ta'siri moddiy omillar ta'sirida emas, birinchi navbatda g'oyaviy omillar

⁴¹ Finnemore M., Sikkink K. Taking stock: The constructivist research program in international relations and comparative politics // Annual Review of Political Science, 2001. N 4. – P.394.

natijasida shakllanadi. Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi talqiniga ko'ra eng muhim g'oyaviy omillarning shakllanishida "subyektlar-aro e'tiqodlar" birlamchi xususiyatga ega. Bu e'tiqodlar ishtirokchilarning o'ziga xosligi va manfaatlarini shakllantiradi⁴². Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Yosh afg'onlar"ning asosiy g'oyalari "Yosh turklar" qarashlari natijasida shakllanganligi yoki Afg'onistonning birinchi amir Omonullaxonning Otaturk bilan yaqin munosabatda ekanligi ijtimoiy konstruktivizm nazariyasining Afg'oniston va Turkiya munosabatlarining tadqiq etishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Afg'oniston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni nazariy qarashlar asosida tahlil qilar ekanmiz ilmiy adabiyotlarga ingliz maktabining sotsiologiya sohasi olimlari tomonidan olib kirilgan xalqaro munosabatlarda "qarindoshlik" tushunchasi bu ikki qardosh davlatlar o'rtasidagi alohida munosabatlar misolida yana ham aniq namoyon bo'lishi aniqlandi. AK Partiya davrida musulmon turk mamlakatlari Turkiya tashqi siyosatida "do'st", "birodarlar", "qarindoshlar", "bir sivilizatsiya a'zolari" sifatida tilga olinib, bu doirada hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ushbu mamlakatlar bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan alohida tashqi siyosat yuritilishi ta'kidlangan⁴³. Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi bu alohida munosabatlar bir-birini qarindosh sifatida qabul qilish natijasidir. Xulosa qilib aytganda, qardosh-urug' davlatlar o'z munosabatlarini yo'lga qo'yishga harakat qiladigan, umumiy etnik kelib chiqishi, umumiy tili, madaniyati hamda dinning mushtarakligi, ajdodlar umumiyligiga asoslangan tarixiy munosabatlariga ega bo'lgan davlatlardir. Turkiya Afg'onistonga nisbatan munosabatlarda qarindoshlik tushunchasini siyosiylashtirdi. Bu konsepsiya rahbarlarning g'oyalari, diplomatik nutqlari va tashqi faoliyatlarida o'z aksini topdi. Ahmet Davuto'g'li, sivilizatsiya milliy o'zlikdan xabardor bo'lish tarixiy shakllanish sifatida paydo bo'lgan o'zlikni tan olish orqali bo'lishi mumkinligini ta'kidlab: "O'ziga xoslik chegaralar bilan cheklanmagan, balki tegishlilik hissiyoti va yurak rishtalari bilan chizilishi mumkin bo'lgan hissiy elementlardir. Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarni xuddi shunday tushuntirish mumkin⁴⁴", – deya izohladi. Turkiyaning qo'shni va mintaqa davlatlari bilan aloqalari irq, til, mushtarak o'tmish va diniy rishtalarni hisobga olgan holda olib borayotgan tashqi siyosatda qarindoshlik faktorlariga keng urg'u berayotganini dalilidir. Bu doirada Turkiyaning Pokiston, Afg'oniston, Malayziya kabi davlatlar bilan aloqalari va o'zaro ijobiy his-tuyg'ularning mavjudligi va diniy birodarlik asosida qurilganini ko'rish mumkin.

Mintaqaviy xavfsizlik nazariyasiga ko'ra, Afg'oniston o'zidagi xavf manbaini eksport qilish xarakteriga ega ekan Turkiya tarixan bu masalaga e'tibor qaratib kelganiga guvoh bo'lish mumkin. Sovet davlatining ehtimoliy harakatlariga

⁴² Ruggie J.G. What makes the world hang together? Neo-utilitarianism and the social constructivist challenge // International Organization. – 1998. Volume 52, N.4. – P.881.

⁴³ Sunar B. Adalet Ve Kalkınma Partisi'nin Dış Politika Söyleminde Temalar: Türkiye Bülteni Üzerine Bir İnceleme // Süleyman Demirel Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi. – 2013, C.18, S.3. – S.436.

⁴⁴ Kaya G. Türkiye-Afganistan ilişkileri. Yüksek lisans tezi. T.C. Yalova üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü, 2019. – S.13.

qarshi xavfsizlik kamarini yaratishda Turkiya doimo Afg'onistonni xalqaro tashkilotlarga a'zolikka undab kelgan. 1934-yilgi Millatlar Ligasi va 1937-yilgi Saadobod paktining Afg'oniston tomonidan imzolanishida Turkiyaning tashabbuslari hal qiluvchi rol o'ynagan. Turkiya keyinchalik, 1955-yilda Bag'dod paktiga Afg'onistonning ham qo'shilishi uchun faol harakat qilgan. Ammo Pushtuniston masalasidagi Pokiston bilan muammolar bunga izn bermagan.

Turkiya terrorizmdan eng ko'p aziyat chekkan mamlakat sifatida 2001-yil 11-sentyabr AQShdagi xurujlarni qoralagan holda ISAF kuchlari tarkibida Afg'onistonga qo'shin kiritdi. Garchi ushbu kontingent harbiy harakatlarda deyarli ishtirok etmagan bo'lsa-da, Turkiya xavfsizlik omilidan kelib chiqib, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etdi. B.Buzanning ta'kidlashicha, madaniy elementlarning xavfsizlik masalalarida ishtiroki ham katta ta'siriga ega. Unga ko'ra liberalizm yoki realizm ta'kidlaganidek xavfsizlik faqat harbiy omillargagina emas, ocharchilik, kasallik, qochqinlar oqimi kabi noharbiy omillarga ham bog'liq. Afg'onistonda so'nggi yillarda minglab qochqinlarning Turkiya tomon harakatlanishi Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga yetarlicha ta'sir qiladi. Buning oldini olish uchun Afg'onistonga yirik hajmdagi gumanitar yordamlarning yuborilish ishlari aynan xavfsizlik omili bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning birinchi bobida shuningdek, ikki davlat munosabatlarining tarixiy jihatlari, ikki tomonlama munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-normativ hujjatlar imzolanishi, Afg'onistondagi modernizatsiya jarayonlarida turk mutaxassislarining ahamiyati, Omonullaxonning Turkiyaga rasmiy tashrifining turk matbuotida aks etishi yoritilgan. Davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari va o'zaro mutaxassislar almashinuvlari Ikkinchi jahon urushi davridagi Turkiyaning G'arbga yaqinlashuvi sharoitida biroz pasayishiga qaramasdan 1979-yilgacha ijobiy ruhda davom etgan. Sovetlarning Afg'onistonga urushi boshlangandan keyin 1980-yillar boshida Turkiya Respublikasi Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kirishini qoralab, buni boshqa bir davlat ishlariga nisbatan harbiy aralashuv sifatida baholadi⁴⁵. Biroq, boshqa biror bir yirik amaliy choralarni qo'llamadi. Sovet Ittifoqi parchalanib, mustaqil Markaziy Osiyo davlatlari tashkil topgach, Turkiya tashqi siyosatida Afg'oniston yo'nalishi strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Kobuldagi elchixonadan tashqari Mozori Sharifda bosh konsullik ochildi, bu esa Afg'oniston markaziy hukumatida ma'lum noroziliklarga sabab bo'ldi, chunki Turkiya general Abdul Rashid Do'stumni qo'llab-quvvatladi, mamlakat shimolidagi siyosiy partiyalar, guruhlar va harakatlar bilan kerakli yaqin aloqalarni o'rnatdi⁴⁶. Albatta ushbu tavakkalchilik ortida ham siyosiy maqsadlar bor edi. Jumladan, Afg'onistonning shimolida Turkiyaga etnik jihatdan juda yaqin bo'lgan millionlab turklar yashaydi. Ularning aksariyatini o'zbek va turkman millatiga mansub qatlam tashkil qiladi. Turkiya Respublikasining Afg'onistondagi diplomatik jihatdan mavjudligi va harakatlari uning nafaqat xalqaro hamjamiyat orasidagi nufuzini oshirishga balki, mintaqada ham o'z ta'sirining kengayishiga yordam berdi

⁴⁵ Geçmişten Günümüze Türk Afgan İlişkileri / Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları. – Ankara, 2009. – S.86.

⁴⁶ Cankorel B. Bir Donem Biterken Bir Diplomatın Seyir Defteri. – İstanbul: Kırmızı Kedi Yayınevi, 2014. – S.121.

Dissertatsiyaning “**Kobulda respublika boshqaruvi davrida afg‘on-turk munosabatlari (2001-2021)**” deb nomlangan ikkinchi bobi 2001-yil 11-sentyabr voqealari natijasida Afg‘onistonga xalqaro kuchlarning kirishi, ushbu jarayonlarda Turkiyaning ishtiroki, afg‘on muammosini bartaraf qilish bo‘yicha Turkiya tashabbuslari hamda Turkiyaning Afg‘onistondagi “yumshoq kuch”ni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Yarim asrlik mojarolar markaziga aylanib qolgan Afg‘onistonni har tomonlama tiklash, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni tartibga solish, aholining ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ish o‘rinlari bilan ta‘minlash kabi birlamchi ehtiyojlarini hal qilish bo‘yicha Turkiya yirik amaliy natijalarga erishgan. 2002–2014-yillar oralig‘ida Turkiyaning Afg‘onistonga ko‘rsatgan to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yordamining hajmi 950 million AQSh dollarini tashkil etgan⁴⁷. Shu bilan birga, Afg‘oniston 2007-yilda Turkiyaning rivojlanish bo‘yicha yordamini oluvchi davlatlar orasida birinchi o‘ringa chiqdi va keyingi 3 yil ichida bu ko‘rsatgichni saqlab qoldi.

2007-yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisining 5694-sonli qarori bilan “Turkiya Respublikasi hukumati bilan Afg‘oniston Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasida texnik, ilmiy va iqtisodiy hamkorlik protokoli” imzolandi⁴⁸. Bu borada Turkiya ko‘plab infratuzilmalar: yo‘llar, ko‘priklar, temir yo‘l, maktab, kasalxona, yotoqxonalar va laboratoriyalar qurish orqali Afg‘onistonda tinch hayotning tiklanishiga hissa qo‘shdi. Bu orqali Turkiya afg‘onlar orasida ijobiy imij yaratib, “yumshoq kuch” tuzilmalaridan (gumanitar diplomatiya, madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi) samarali foydalandi. Turkiyaning Afg‘onistondagi “yumshoq kuch”ni amalga oshiruvchi tuzilmalari – TIKa, Yunus Emre instituti, Xalq diplomatiyasi instituti va AFAD kabi shu maqsadda tashkil etilgan muassasa va tashkilotlarga qo‘shimcha ravishda, teleseriallar, iqtisodiy tuzilmalar va jamg‘armalar kabi davlatdan mustaqil ravishda paydo bo‘lgan yumshoq kuch vositalarini alohida ta‘kidlab o‘tish joizdir⁴⁹.

Ikki tomonlama munosabatlarda xavfsizlik, terrorizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, milliy politsiya tizimini vujudga keltirish borasida ham jiddiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2009-2013 yillar mobaynida Turkiya tomoni 17 mingdan ortiq afg‘on askarlarini tayyorlagan, shundan 3,5 ming nafari Turkiyada maxsus harbiy tayyorgarlik amaliyotini o‘tab, Afg‘onistonga qaytgan.

Turkiyaning Afg‘oniston va uning qo‘shnilar orasidagi munosabatlarni yaxshilash, afg‘on muammosiga jahon hamjamiyatining nigohini qaratish, mintaqa davlatlari bilan Afg‘oniston integratsiyasini mustahkamlash borasida yirik tashabbuslar ilgari surish orqali Turkiya o‘zining samarali tashqi siyosatini va vositachilik rolini namoyon qildi. Turkiya, Afg‘oniston va Pokiston davlat rahbarlarining ilk marta Anqarada 2007-yilgi uchrashuvi bilan boshlangan “Anqara

⁴⁷ Алиева А.И. Афганская стратегия Турции: содействие безопасности и развитию // Вестник МГИМО-Университета. – Москва. № 2. Vol 47. – 2016. – С. 82, 84.

⁴⁸ Turkiya Respublikasi prezidenti rasmiy gazetasi: 2007 yil 8 dekabr <https://www.resmigazete.gov.tr/eskiler/2007/12/20071208-2.htm>

⁴⁹ Mehmet Şahin ve B. Senem Çevik, Türk Dış Politikası ve Kamu Diplomasisi, Ankara: Nobel Yayınları (2015). <https://books.google.co.uz/books?id=pmg7nQAACAAJ&lpg=PR1&hl=ru&pg=PA12#v=twopage&q&f=false> (04.01.2024)

jarayoni” natijasida Anqara deklaratsiyasi imzolanib, unda Afg‘oniston va Pokistonning ikki tomonlama aloqalari yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari, hududiy yaxlitlikni o‘zaro hurmat qilish va ichki ishlarga aralashmaslik asosida mustahkamlanishi kabi ayni damda dolzarb bo‘lgan masalalar muhokama qilindi⁵⁰. Ushbu sammit doirasida yetti marta oliy darajadagi uchrashuvlar tashkil qilingan.

2011-yil Istanbulda tashkil etilgan “Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni” esa Turkiyaning taklifiga binoan geografik ko‘lami va iqtisodiy-siyosiy ta’sirini kengaytirib, Afg‘oniston, Pokiston va Turkiya prezidentlari, Eron prezidentining birinchi o‘rinbosari, Xitoy prezidentining maxsus vakili va tashqi ishlar vaziri, Tojikiston tashqi ishlar vaziri uchrashdi. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Qirg‘iziston, Saudiya Arabistoni, BAA, Rossiya, Islom konferensiyasi, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, BMT, Yevropa Ittifoqi va NATO vakillari kuzatuvchi sifatida qatnashdilar. Istanbul jarayoni 15 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki mintaqaviy qo‘shnilar tomonidan tuzilgan bo‘lib, unga Afg‘oniston, Ozarbayjon, Xitoy, Hindiston, Eron, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, BAA va O‘zbekiston kiradi. Jarayon siyosiy va xavfsizlik sohalari; iqtisodiy, ta’lim va madaniyat sohalari; ilm-fan va texnologiya; huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek, Afg‘oniston va mintaqaviy hamkorlikka hissa qo‘shish imkoniyatiga ega davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama, uch tomonlama va to‘rt tomonlama tashabbuslarni ham e’tiborga oladi, ularni faollashtirishga chaqiradi. U Afg‘oniston va uning qo‘shnilari o‘rtasida hamkorlik va muloqotni faollashtirishga qaratilgan turli sa’y-harakatlarni olqishlaydi, mintaqadagi barcha davlatlar duch kelayotgan turli muammolarning o‘zaro bog‘liqligini tan oladi⁵¹.

2002-yil Adolat va taraqqiyot partiyasining (AKP) hukumat tepasiga kelishi bilan Turkiyaning tashqi siyosatida milliy o‘zlik, islomiy qadriyatlar va tarixiy davolari masalalari yetakchilik qila boshladi. Markaziy Osiyoni strategik mintaqqa hisoblaydigan turk hukmron elitasi unga tutash bo‘lgan Afg‘oniston masalasiga ham alohida yondasha boshladi. Bu o‘rinda “yumshoq kuch” siyosati va uni amalga oshiruvchi mexanizmlarga urg‘u berildi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning 2016-yilda chop etilgan hisobotga ko‘ra, Turkiya 2015-yilgi baholashda umumiy reytingda gumanitar yordamga mablag‘ ajratish borasida 6-o‘rinni, YaIM qiymatiga ko‘ra esa birinchi o‘rinni egalladi. AFADning Global gumanitar yordam hisobotiga asoslanib bergan bayonotiga ko‘ra, 2016-yilda 6 milliard dollarlik insonparvarlik yordami ko‘rsatgan Turkiya, 6,3 milliard dollarlik yordam ko‘rsatgan AQShdan keyin eng ko‘p xalqaro gumanitar yordam bergan ikkinchi davlatdir⁵². Turkiya gumanitar diplomatiyasini tahlil qilar ekanmiz Afg‘oniston bu yo‘nalishda 2005-yildan boshlab Turkiyadan eng ko‘p yordam olgan mamlakat ekanligini ko‘rish mumkin. Chunki Turkiya gumanitar

⁵⁰ “Declaration from Karzai and Musharraf”, BBC Turkish, 30 April 2007, http://www.bbc.co.uk/turkish/europe/story/2007/04/070430_turkey_pakistan_afghan.shtml. (30.06.2014)

⁵¹ Turkish Ministry of Foreign Affairs, “The Istanbul Process on Regional Security and Cooperation for a Secure and Stable Afghanistan, 2 November 2011”, <http://www.mfa.gov.tr/istanbul-process-on-regional-security-and-cooperation-for-a-secure-and-stable-afghanistan.en.mfa> (30.6.2014)

⁵² Kurt V. Bir di‘ politikada araci olarak Turkiye’nin di‘ yardimlari // Di‘ politikada sert ve yumu‘ak gu‘, 2017. – S.504.

diplomatiyasi, o'zining umumiy xususiyatidan tashqari, o'zbeklar va turkmanlar kabi turkiy guruhlariga ham ko'proq e'tibor qaratdi. Turkiya yordami asosan markazlashgan poytaxt Kobuldan tashqari, 2014-2020-yillarda vitse-prezident bo'lib ishlagan hamda Turkiya bilan yaqin aloqada bo'lgan etnik o'zbek, harbiy qo'mondon general Do'stum tomonidan bir necha yillar davomida nazorat qilingan shimoli-g'arbiy mintaqalarga ko'proq yo'naltirilganini ko'rish mumkin⁵³.

Qolaversa, Turkiya Afg'onistondagi eng muhim muammolardan – ta'lim va tibbiy xizmat sohasidagi faoliyatlari orqali afg'onlar orasida ijobiy imij yarata oldi. 2005-yildan 2017-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida TIKA Afg'oniston shimolida qariyb 13 million nafar afg'onistonliklarga tibbiy xizmat ko'rsatgan⁵⁴ bo'lsa, 2005-yildan 2018-yilgacha Afg'onistonda TIKA homiyligida 100 ga yaqin maktab qurilib, 120 mingdan ortiq o'quvchiga yaxshi va sog'lom sharoitlarda ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratildi. Turkiya global kuch markaziga da'vogar mamlakat sifatida xorijlik talabalarni qabul qilishda dunyoning peshqadamlaridan bo'lib, xorijlik talabalarining qabul qilish qamrovi har yili yuz ming nafardan oshmoqda. Turkiyaning stipendiya loyihalari Turkiy tilli davlatlar loyihasi, Bolqon stipendiya loyihasi, Qora dengiz stipendiya loyihasi, "Turkiya – Afrika" stipendiya loyihasi, Xarran stipendiya loyihasi kabi turlarga bo'linadi⁵⁵. Afg'onistonlik talabalar asosan Xarran loyihasi asosida Afg'onistonda ta'lim olishlari mumkin⁵⁶. Afg'onistondagi turk maktablarini a'lo baholarga tamomlagan yoshlarga Turkiyada o'qishni davom ettirish imkoniyati beriladi. Ko'p sonli afg'on yoshlari Turkiyada "Ihlas Vaqfi" va "Diyanet Vaqfi" jamg'armalari orqali ta'lim oladi. Turkiyada maxsus stipendiya asosida ta'lim olayotgan Afg'oniston talabalarining umumiy soni birgina 2018-yilning o'zida 4000 nafardan oshgan.

Turk tili, tarixi, madaniyati va san'atini targ'ib qilish, xorijdagi turk tili, madaniyati va san'ati sohasida ta'lim olishni xohlovchilarga ushbu sohada imkon yaratish, chet el universitetlari va nodavlat tashkilotlar bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish, Turkiyaning boshqa davlatlar bilan madaniy almashinuvini oshirish va do'stligini rivojlantirish kabi ishlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Yunus Emre fondi Afg'onistonda ham o'z faoliyatini olib boradi. 2019-yil 20-sentyabr holatiga ko'ra Yunus Emre instituti Afg'onistonning turli mintaqalarida ta'lim sohasida 400 ga yaqin loyihani amalga oshirdi. Masalan, Afg'oniston poytaxti Kobulda o'tkazilgan "Savodxonlik kampaniyasi" doirasida yuzlab afg'on ayollari o'qish va yozishni o'rgandi. Yunus Emre instituti faoliyatidan foyda ko'rgan davlatlar orasida Afg'oniston Ozarbayjondan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, turk tili Afg'oniston universitetlarida

⁵³ Афгано-турецкие отношения на современном этапе <https://afghanistan.ru/doc/104690.html>

⁵⁴ TIKA, Afganistan'in kuzeyinde 17 yilda 12 milyondan fazla kişiye sağlık hizmeti verdi https://tika.gov.tr/detail-tika_afganistan_in_kuzeyinde_17_yilda_12_milyondan_fazla_kisiye_saglik_hizmeti_verdi/

⁵⁵ Стипендии Турции: стипендиальные программы для иностранных студентов http://universitetcihleri.com/uni/docs/eit_224_ru_5.pdf

⁵⁶ Harran Turkiya hududidagi qadimiy shahar bo'lib, tarixdagi birinchi universitetlardan biri bo'lganligi va turli davrlarda mintaqaning muhim ilmiy markazi bo'lganligi ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni yaxshilashga qaratilgan ushbu stipendiya dasturi nomini tanlashda hal qiluvchi omil bo'ldi. Ushbu dastur qadim zamonlardan buyon ushbu mintaqaning ilmiy va madaniy markaz sifatida jahonda tan olinishini tiklashga qaratilgan bo'lib Bangladesh, Falastin, Iroq, Eron, Livan, Pokiston, Suriya, Tojikiston, Iordaniya, Yaman, Afg'oniston, Isroil kabi davlat yoshlari uchun mo'ljallangan stipendiya loyihasi hisoblanadi.

ingliz tilidan keyin eng mashhur va foydali deb qaraladigan ikkinchi chet tiliga aylandi⁵⁷. Turk tilini ommalashtirish vazifasida ishlaydigan turkologiya fakultetlari faqatgina Kobul universitetlari bilan cheklanib qolmasdan Afg'onistonning Bag'lon, Balx, Juzjon, Sari-Pul, Faryob va Tohar viloyatlarida ham o'z faoliyatini olib borgan.

“Tolibon” hokimiyatga kelgandan keyingi davrda Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'oniston bilan munosabatlari” deb nomlangan uchinchi bobda 2021-yil 15-avgustda Tolibonning hokimiyatni qayta egallashi, uning Turkiya va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun oqibatlari, toliblar va Turkiya munosabatlarida duch kelinayotgan muammolar muhokama qilingan.

Tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki, Tolibon hokimiyatga qaytganidan so'ng ko'plab davlatlar va NATO a'zolari Afg'oniston bilan diplomatik aloqalarini uzib, vakolatxonalarini, jumladan elchixonalarini yopganiga qaramasdan Turkiya urushdan vayron bo'lgan mamlakatda diplomatik ishtiroki orqali ko'p sohalarda faol rol o'ynashga urinmoqda. Bu jihatdan Turkiya Tolibon bilan ular hokimiyatga kelishidan oldinroq muloqotni yo'lga qo'ya olganini unutmazlik lozim. Turkiyaning Tolibon bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish va bu borada Pokiston ko'magiga tayanishni maqsad qilgan. Tolibon bilan diplomatik munosabatlarga kirishar ekan Turkiya siyosiy taranglikni yumshatish maqsadida uch tomonlama Anqara, Kobul va Islomobod o'rtasida har yili o'tkaziladigan bir necha sammitlarga mezbonlik qilish bo'yicha tarixiy tajribaga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Anqaraning mintaqadagi nufuzini hisobga olgan holda G'arb davlatlari ham Afg'oniston masalasida Turkiya bilan konsensusga kelishi zarurligini anglab yetdi. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri – og'ir gumanitar falokat fonida Afg'onistondan minglab muhojirlarning Turkiya orqali Yevropa va Amerikaga yo'nalgan ulkan migratsiya to'liqini oldini olish edi. Afg'onlarning Turkiyaga migratsiyasi haqida gapiradigan bo'lsak qochqinlar oqimi asosan yaqin qo'shnilariga ta'sir ko'rsatsa-da, ularning muhim qismi bu hududdan tashqariga chiqishi hamda Turkiyani bir vaqtning o'zida Yevropaga tranzit sifatidagi muqobil davlat ekanligi migrantlar to'liqini yanada oshiradi. Suriya inqirozi boshlanganidan beri Anqara 3,6 million ro'yxatga olingan suriyalik qochqinlarni va 320 mingga yaqin boshqa millat vakillarini qabul qildi. Keyingi yillarda, ayniqsa 2018-yildan boshlab esa, Afg'onistondan kelgan qochqinlar uchun Turkiya asosiy yo'nalishga aylanmoqda⁵⁸. Turkiya Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Migratsiya bo'yicha bosh boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Turkiya hududida birgina 2021-yil sentyabr oyida 44.565 nafar ro'yxatdan o'tmagan afg'onlar aniqlangan⁵⁹ bo'lsa, 22.606 nafar Afg'oniston fuqarosi Turkiya va boshqa mamlakatlardan siyosiy boshpana so'rab murojaat qilgan⁶⁰. Turkiya

⁵⁷ Dashti Z., Kamil İ. Kamu diplomasisi açısından TİKA ve Yunus Emre enstitüsünün Afganistan'daki faaliyetleri. Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – 2022, № 15, Vol 40. S – 686.

⁵⁸ The Situation of Afghan Refugees in Turkey. Frankfurt: Stifun Pro Asyl. Expert opinion. – 2021. – P.6.

⁵⁹ T.C. İçişler Bakanlığı Göç İdaresi Genel Müdürlüğü. Uluslararası koruma <https://www.goc.gov.tr/uluslararasi-koruma-istatistikler>

⁶⁰ E.g.: Ankara decided to reinforce its Iranian border with a three-metre wall to block Afghan refugees. Turkey reinforces Iran border to block Afghan refugees. The Guardian: <https://www.theguardian.com/world/2021/>

Afg‘oniston bilan qardoshlik munosabatlariga urg‘u bersa-da, qochqinlar va muhojirlar davlatga tobora ortib borayotgan iqtisodiy yukni keltirib chiqarayotganligi fuqarolar noroziligini uyg‘otmoqda.

Turkiya rasmiylarining Afg‘onistonda yangi hukumat bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish va vositachi sifatida harakat qilish istagiga qaramay, bu hukumatlar orasidagi munosabatlarda qiyinchiliklar tug‘dirayotgan bir qator omillar mavjud. Birinchi omil sifatida Turkiya Afg‘onistondagi yangi hukumatni tan olishga shoshilmayotganligini misol qilib keltirish mumkin. Turkiyaning bu pozitsiyasi asosiy sheriklari bo‘lmish G‘arb davlatlari va Osiyodagi mintaqaviy ishtirokchilar siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan. Tolibonning muvaqqat hukumat to‘g‘risidagi dastlabki e‘loniga ko‘ra pushtun millatiga mansub bo‘lmagan atigi uchta a‘zosi borligini tanqid qilari ekan, Erdog‘an, agar ular inklyuziv hukumat tuzsa, Turkiya toliblar bilan chuqur hamkorlik qilishi mumkinligini aytdi⁶¹.

Turkiyaning Afg‘onistonda NATOdan keyin ham harbiy ishtirokini davom ettirishi bilan bog‘liq mojaro ikki tomonlama munosabatlarga ma‘lum darajada zarar yetkazgan ikkinchi omil hisoblanadi. Natijada 2021-yil iyul oyida Tolibon Afg‘onistondagi turk harbiy kontingenti borasida keskin bayonot berdi, “Turk hukmdorlarining AQSh talabi va qarori bilan mamlakatimizga qarshi tajovuzni davom ettirish haqida e‘lon qilishi bizda nafrat va adovat uyg‘otadi hamda ikki tomonlama munosabatlarga putur yetkazadi”, – deyiladi Tolibon harakatining bayonotida⁶².

Munosabatlarda dilemmalar keltirib chiqaradigan uchinchi omil – Tolibonning ashaddiy muxoliflari Turkiyaning turli markaziy shaharlaridan boshpana topishgan. Ularning orasidagi eng mashhuri va “Shibirg‘on qirg‘ini” tashkilotchisi deb ataladigan etnik o‘zbek Abdul Rashid Do‘stumdir. Afg‘onistonda “Tolibon”ning birinchi hukmronligi davrida (1996–2001) Do‘stum Turkiyada boshpana topgan. 2022-yil may oyida Afg‘onistonning bir necha muxolif siyosatchilari, jumladan sobiq vitse-prezident Abdul Rashid Do‘stum Anqarada 40 nafar siyosiy yetakchi va sobiq jihodchilar rahbarlari bilan uchrashgan⁶³. “Afg‘onistonni qutqarish uchun milliy qarshilik” sarlavhasi ostida tashkil etilgan shunga o‘xshash uchrashuvlarning bo‘lishi Turkiyaning Afg‘oniston masalasidagi tinchlik muzokaralariga mezbon sifatida betaraflik maqomini yo‘qqa chiqarishi mumkin.

Ushbu bobda shuningdek, G‘arb kuchlarining Afg‘onistonni tark etishi fonida Afg‘onistondagi hokimiyat bo‘shlig‘i Turkiya va turk dunyosining geosiyosiy ahamiyatini oshirganligi masalasi ham ko‘rib chiqilgan. Chunki, turk dunyosining bir qismi bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari ham geosiyosiy subyekt sifatida mintaqaning muhim ishtirokchilar qatoriga kiradi. Bu o‘rinda birinchi navbatda Afg‘onistondagi tinchlik jarayoni uchun faol harakat qilayotgan

aug/23/turkey-reinforces-iran-border-to-block-afghan-refugees

⁶¹ Al Jazeera. Erdogan says Taliban lacking ‘inclusive encompassing leadership’. <https://www.aljazeera.com/news/2021/9/23/erdogan-says-taliban-current-actions-not-inclusive-local-media>

⁶² Кравцова А. С., Двусторонние отношения Афганистана и Турции // Южного федерального университета, Институт социологии и регионоведения, 2022. – С.80.

<https://www.iess.ir/fa/translate/3160/> ترکیه و اپوزیسیون امارت اسلامی منافع آنکارا در افغانستان

O‘zbekistonni alohida qayd etish lozim. Undan keyingi o‘rinlarda Afg‘onistonni iqtisodiy loyihalar doirasida hamkorlikka tortishga e‘tibor qaratayotgan Turkmaniston, so‘ngra Qozog‘iston va Qirg‘izistonning “yumshoq kuch” jihatidan gumanitar yondashuvlari, nihoyat, Ozarbayjonning transport-logistik nuqtai nazardan Afg‘oniston bilan munosabatlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo davlatlaridan faqatgina Tojikiston “Tolibon” bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yish masalasini ortga surib kelmoqda.

Afg‘onistonda respublika hukumatining qulashidan so‘ng Markaziy Osiyodagi Turkiy davlatlari o‘z tashqi siyosatining afg‘on yo‘nalishda o‘z milliy manfaatlari talqini nuqtai nazaridan bir qancha qat‘iy qadamlar tashlashdi. “Tolibon” vakillari O‘zbekistonga (oliy darajada) va Turkmanistonga (vazir o‘rinbosari maqomida) safar qildi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va O‘zbekistonning rasmiy vakillari turli darajada Kobulga tashrif buyurdilar⁶⁴.

Bu borada O‘zbekistonning yondashuvlari pragmatik bo‘lib, “Tolibon” hokimiyatga ikkinchi marta kelganidan so‘ng ikki o‘rtada ko‘plab muzokaralar amalga oshirildi. O‘zbekiston rasmiylari Kobul bilan bir qatorda bu mamlakatning boshqa shaharlariga, jumladan, Mozori Sharifga tashriflar qilishdi. Jumladan, 2021-yil 8-oktyabr kuni O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Afg‘onistonga tashrif buyurib, Tolibon rasmiylari bilan uchrashdi. Uchrashuvda Tolibon vakillari Afg‘oniston va O‘zbekiston bir biri bilan diniy, tarixiy va madaniy aloqalarga ega ekanligini, Afg‘oniston hududidan O‘zbekistonga qarshi tahdid yoki xavf sifatida foydalanishga yo‘l qo‘ymasliklarini va O‘zbekistonning Afg‘onistondagi loyihalari xavfsizligi to‘liq ta‘minlanishini ta‘kidladi. O‘zbekiston tomoni esa gumanitar inqirozga qarshi Kobulni qo‘llab quvvatlash, Mozori Sharifdagi Mavlono Jaloliddin aeroportining ishlashida yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi⁶⁵. Bugungi kunda Toshkent Afg‘onistonga eng ko‘p elektr energiya manbalarini yetkazib beruvchi muhim strategik sherik, shuningdek, u o‘z tovarlarini Afg‘oniston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, Pokiston yo‘nalishida (Karachi va Gvadar dengiz portlari) transport aloqalarini kengaytirishdan manfaatdor. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning Afg‘oniston bo‘yicha xalqaro tadbirlar o‘tkazayotgan yagona mamlakatidir, so‘nggi 5 yil ichida 3 ta shunday tadbir o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarning so‘ngisi Toshkentda 2022-yilning 25 – 26 iyul kunlari “Afg‘oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” nomi ostida bo‘lib o‘tdi. va unda 20 ta mamlakatdan 100 ortiq delegatsiya ishtirok etdi⁶⁶. Yangi konferensiyaning ushbu davrdagi afg‘on mavzulariga bag‘ishlangan ko‘plab xalqaro tadbirlardan farqli jihati mavjud bo‘lib, unda Afg‘onistondagi xavfsizlik masalalariga emas, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va iqtisodiy loyihalarning ahamiyatiga asosiy e‘tibor qaratilgan edi.

⁶⁴ Гиёсов М., Ризоён Ш. «Толибон» ҳаракатининг Афғонистондаги бир йиллик «хукмронлиги» // Uz Analytics (USA). Date of publication: 26.08.2022. URL: <https://www.uzanalytics.com/siyosat/10328/>

⁶⁵ “ازبکستان برای همکاری با دولت طالبان اعلام آمادگی کرد” <https://ufuqnews.com/archives/188235>

⁶⁶ Князев А. А. Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст // Постсоветские исследования. 2023, N.3. Т.6. – С.272.

XULOSA

Yuz yil avval rasmiy maqomda boshlangan Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi do'stlik va sheriklikka asoslangan diplomatik munosabatlarni ilmiy o'rganish mobaynida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Dinning mushtarakligi va an'analarning yaqinligi bilan birga davlat rahbarlari shaxsiyatining o'xshashligi XX asrning birinchi yarmida ushbu ikki davlatning yaqinlashishi va munosabatlarning mustahkamlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shundan kelib chiqqan holda, qadriyatlar, madaniyatlar va siyosiy liderlarning shaxsiy xarakterlari xalqaro munosabatlarga kuchli ta'sir qilishi mumkinligini realizm yoki liberalizm singari mumtoz nazariyalardan farqli o'laroq "jamoaviy o'ziga xoslik" ya'ni ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi bilan yaxshiroq ochib berish mumkinligi oydinlashdi.

2. Turkiya tarixdan Afg'onistonni mintaqaviy qo'shnilari va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida muhim vositachi sifatida o'zini namoyon qila olgan. 1936-yilda Millatlar ligasiga Afg'onistonning a'zo bo'lganligi yoki Afg'oniston davlatchilik tarixidagi birinchi xalqaro pakt – Saadobod paktiga aynan Turkiya taklifi va tashabbuslari bilan qo'shilganligi yangi davrda afg'on diplomatiyasi shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

3. Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarni tizimli-xronologik usulda o'rganish mobaynida munosabatlarda uzilishlar, turg'unlik davrlari yoki hamkorlik darajasining pasayishiga tashqi omillar bilan bir qatorda diniy, etnik muammolar va xavfsizlik masalalari bo'yicha tomonlarning qarashlaridagi farqlar sabab bo'lganligi oydinlashdi.

4. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashish maqsadida 2001-yil 11-sentyabrdan keyin AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya kuchlari (ISAF) tarkibida NATOning yagona musulmon a'zosi bo'lmish Turkiya harbiylarining Afg'onistonga kiritilishi unga katta mas'uliyat yukladi. Bu bilan G'arb davlatlarining qo'mondonlikni musulmon davlatiga o'tkazib, munosabatlardagi keskinlikdan qochishga urinishlari ham tasdiqlaydi.

5. 2001-yil "Tolibon" rejimi qulagach ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi. Davlat rahbarlarining oliy darajadagi tashriflari muvaqqat hukumat davrida boshlanib, Afg'oniston Islom Respublikasi tuzilganidan keyin ham davom etdi, delegatsiyalar almashinuvi tezlashdi, o'zaro hamkorlikning qator mexanizmlari ishga tushirildi. Bu orqali ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Davlatlararo oliy darajadagi tashriflarda mudofaa va xavfsizlik, sanoat, transport, savdo, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi qator muhim sohalardagi hamkorlik Afg'onistonda tinch hayotning tiklanishiga ijobiy ta'sir qildi.

6. Afg'oniston masalasida Turkiya tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri "yumshoq kuch" omilidan samarali foydalanishdir. Turkiyaning Afg'onistondan geografik uzoqligi va mintaqaning xususiyatlari bu omilning ahamiyati va ustuvorligini belgilab berdi. AK partiya hokimiyatga kelganidan keyin islomiy o'zlik masalasi tashqi siyosatning asosiga aylandi.

“Yumshoq kuch”ni tatbiq etishning asosiy mexanizmlari sifatida Turkiya TIKa, Yunus Emre instituti, Turk Qizil yarim oy jamiyati, turk filmlari va turk tilini targ‘ib qiluvchi bir qator nodavlat tashkilotlar Afg‘onistonda samarali faoliyat yuritgan.

7. Turkiya xalqaro ishlarda faol ishtirok etishga intiladi va bahsli va cho‘zilgan nizolarni hal qilishda vositachi rolini o‘ynashni xohlaydi. U Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston bilan faol hamkorlik qilishga urinishini, bu mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi pozitsiyasini tushunadi. Bu borada Turkiya Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosatidagi qarashlarini birlashtira oladi. Shu bilan birga, Afg‘oniston va qo‘shni davlatlarning siyosiy va iqtisodiy sohalarida muvaffaqiyatli muloqoti amaldagi kollektiv xavfsizlikning samarali tizimiga bog‘liq, degan tushuncha mavjud. Bu, o‘z navbatida, Afg‘onistonni kelajakda Turkiy davlatlar tashkilotiga kuzatuvchi sifatida taklif qilish uchun asos yaratadi.

8. 2021-yil avgust oyida Turkiya va turkiy dunyo uchun xorijiy qo‘shinlarning Afg‘onistondan olib chiqilishi afg‘on qochqinlarining nazoratsiz oqimi, narkotik moddalar savdosi va terrorchilik harakatlarining kuchayishi, shuningdek, Turkiya uchun ichki xavf tug‘diruvchi afg‘on jangarilarining kurd harakati saflariga qo‘shilish ehtimolini oshirganligi bilan xarakterlanadi. Bu borada yangi tuzilgan “Tolibon” hukumati bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, jiddiy gumanitar inqiroz oqibatlarini yumashatish, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro tranzit savdoga qo‘shilishdan “Tolibon” va Turkiya birdek manfaatdorligi namoyon bo‘lmoqda.

9. Turkiya Afg‘onistonda haqiqiy hukmron kuch bo‘lgan “Tolibon” bilan yanada yaqinroq aloqalarni o‘rnatishi kerak. Bu Afg‘oniston va xalqaro hamjamiyat o‘rtasidagi muzokaralarda vositachi sifatida harakat qilish imkonini berishi mumkin. Bu Turkiyaga ham Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarda, ham zamonaviy jahon siyosati masalalarida o‘zining aniq pozitsiyasiga ega bo‘lgan G‘arb hamkorlari bilan munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, yagona turkiy makon yaratish g‘oyasidan biroz uzoqlashish va ikki tomonlama munosabatlarda etnik omillarni asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqishni to‘xtatish zarur bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, muhojirlar masalasida konsensusga erishish kerak bo‘ladi.

10. So‘nggi yillarda Afg‘oniston-Turkiya munosabatlarining rivojlanishi Markaziy Osiyo respublikalari, xususan, O‘zbekiston tomonidan katta e‘tibor va qiziqish bilan o‘rganilmoqda, O‘zbekiston Respublikasi bilan qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi ochiq, pragmatik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Bu 2017-yildan boshlab O‘zbekiston Afg‘onistonga xavf manbai emas, balki imkoniyatlar mamlakati sifatida qaray boshlagani yaqqol sezilmoqda. 2022-yil 26-27-iyul kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Afg‘oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyada bu haqiqat o‘z tasdig‘ini topdi.

Afg‘oniston va Turkiya Respublikasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar (2001-2023 yy.) mavzusini o‘rganish orqali quyidagi **taklif va tavsiyalar** shakllandi:

1. Zamonaviy tahdidlar va chaqiriqlar hamda Turkiyaning Afg'onistondagi jarayonlarda ishtirokining kengayib borayotganligi, islom olamidagi nufuzi, turkiy dunyodagi mavqeyini hisobga olgan holda Turkiya tashabbusi bilan 2011-2021-yillar davomida Afg'oniston masalasida yirik tashabbuslarni amalga oshirgan va hozirda to'xtab qolgan "Osiyo yuragi – Istanbul jarayonlari" formatining faoliyatini qayta tiklash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. Afg'onistonda millalararo hamjihatlikni ta'minlash, turkiy xalqlar, xususan afg'on o'zbeklarining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy sohalardagi ishtirokini kengaytirish, Afg'oniston va turkiy mamlakatlarning umumiy merosi va xilma-xil an'analarini namoyish qiluvchi madaniy festivallar va tadbirlarni tashkil etish, o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish, umumiy iqtisodiy manfaatlarni yaratish orqali etnik tafovutlarni bartaraf etishga yordam beradigan qo'shma iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish va ularga sarmoya kiritish, afg'on talabalariga stipendiyalar ajratish, o'z tillarida ta'lim olish, mediya va teledasturlardan foydalanish imkoniyatini berish kabi mavzularni qamrab oluvchi "Turkiy dunyo va Afg'oniston forumi"ning huquqiy-normativ mexanizmlarini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishida katta ahamiyat kasb etishi mumkin.

3. O'zbekiston boy madaniy va tarixiy merosga shuningdek, Afg'oniston bilan etnik va diniy yaqinliklarga ega. Bu xalqlarimizni yanada yaqinlashtiradi va Afg'oniston bilan tashqi siyosiy munosabatlarda "yumshoq kuch" elementlaridan foydalanishni ayniqsa muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston bu yo'nalishda Turkiyaning amaliy tajribasidan foydalanishi mumkin, bu mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaqinlashuvni yanada mustahkamlashga, Toshkentning tashqi siyosiy nufuzini oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

4. Turkiy davlatlar tashkilotiga (TDT) a'zo bo'lgan davlatlarning tashqi siyosatida Afg'oniston masalasi doimo muhim o'rin tutadi. Bu davlatlarning ayrimlari Afg'oniston bilan chegaradoshligini, shuningdek, ularning tarixiy va diniy yaqinligini inobatga olib, kelajakda Afg'onistonni ushbu tashkilotda kuzatuvchi davlat sifatida tan olish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur tashabbusni O'zbekiston tomoni ilgari surishi Afg'oniston bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga sabab bo'ladi.

5. Turkiyaning Afg'onistonda kadrlar masalalarini hal etish va ta'lim tizimini rivojlantirish sohasidagi tarixiy va amaliy yutuqlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Turkiyadagi ta'lim muassasalari bilan amaliy tajriba almashishi va Termiz shahrida tashkil etilgan Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazida amalda qo'llash ancha samarali bo'lishi mumkin. Kelajakda O'zbekiston Respublikasi mazkur ta'lim markazining filiallarini Kobul bilan kelishilgan holda Mozori Sharif va Kobul shaharlarida ochish imkoniyatini ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq. Bunday qadam ikki qo'shni davlat o'rtasidagi munosabatlarda ishonchni mustahkamlashga yordam berish bilan birga Afg'oniston ta'lim tizimidagi mavjud bo'shliqlarni to'ldiradi.

6. Afg'oniston va turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot markazini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lardi. Markaz

mazkur aloqalarni yanada rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishi, g'oya va takliflar ishlab chiqishi mumkin. Ushbu materiallar internetdagi tegishli platformalarda ham e'lon qilinishi mumkin. Xodimlarning boy tajribasi va salohiyatini inobatga olgan holda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshida bunday markazning ochilishi bu boradagi ilmiy izlanishlarni tizimli yo'lga qo'yishga katta hissa qo'shgan bo'lar edi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

ФАЙЗУЛЛАЕВ АЗИЗ ХУСАН УГЛИ

**МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ
АФГАНИСТАНОМ И ТУРЕЦКОЙ РЕСПУБЛИКОЙ (2001-2023 гг.)**

07.00.05. – История международных отношений и внешней политики

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2023.3 PhD//Tar1149.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета (www.tsuos.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Хайдаров Абдусамат Ахатович**
доктор политических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Рахимов Мирзохид Акрамович**
доктор исторических наук, профессор

Рашидов Рустам Расулович
доктор военных наук (DSc), доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в _____ часов на заседании Ученого совета за номером DSc. 03/31.01.2024/Tar.21.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения. (Адрес: 100047, город Ташкент, улица Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под номером ____). Адрес: 100047, город Ташкент, улица Амира Темура, 20. Телефон: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации роздан «__» _____ 2024 года.
(Отчет цифрового реестра _____ за _____ 2024 года «__»).

М.М. Исхаков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

Н.Р. Каримов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук по истории(PhD), доцент

С.Б. Шадманова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

Введение (Аннотация диссертации доктора философии (Phd))

Актуальность и востребованность темы диссертации. География расширения масштаба противоречий, постепенно усиливающихся в современном мире, и транснациональные угрозы требуют дальнейшего укрепления международного сотрудничества. Афганистан, расположенный в регионе Южной Азии, и геополитические процессы, происходящие в этом регионе, становятся эпицентром международных отношений. В то время, когда в результате трансформации последних социально-политических процессов в этом регионе сформировались радикализм, нарушения прав человека и поток нелегальных беженцев, регион, в частности, развивает рациональные отношения с Афганистаном во внешней политике тюркских государств, конструктивное сотрудничество по крупным экономическим проектам и совершенствованию транспортных коридоров ставит перед внешнеполитическими структурами государств Центральной Азии такие актуальные задачи, как изучение опыта и совершенствование имеющихся знаний о подходах крупных центров силы к Афганистану.

Современные подходы Узбекистана и Турции к Афганистану во многом схожи и гармоничны. Изучение Афгано-Турецких отношений, оценка влияния Турции в Афганистане, анализ роли официальной Анкары в обеспечении стабильности в регионе изучаются с большим интересом со стороны ведущих мировых научно-исследовательских центров. Актуальные вопросы, такие как экономическое значение Афганистана и его участие в проекте «Один пояс – один путь» в сочетании с геостратегическим положением Афганистана при выходе государств региона в Индийский океан, гуманитарный кризис в Афганистане, усиление радикализации и возможное влияние некоторых шагов по трансграничному водоснабжению на безопасность Центральной Азии, исследуются в рамках ряда научных исследований и авторитетных аналитических центров.

В результате прагматичной внешней политики, проводимой в новом Узбекистане, за последние несколько лет был выдвинут ряд инициатив, направленных на решение афганской проблемы, преодоление гуманитарного кризиса и расширение взаимовыгодных международных связей, в том числе обеспечение эффективного сотрудничества между Центральной и Южной Азией. Международная конференция на тему «Афганистан: безопасность и экономическое развитие», прошедшая 26-27 июля 2022 года в Ташкенте, ещё раз подтвердила, что проблема Афганистана является одним из приоритетов внешней политики нашей страны. Действительно, нам нужен мирный и стабильный Афганистан, который активно участвует в экономическом сотрудничестве с соседними странами¹. В этом контексте стабильность Афганистана выступает гарантом активной экономической и культурной интеграции в перспективе с соседями для всего региона, в частности, Узбекистана.

Данная диссертация в определённой степени служит выполнению задач, поставленных указами Президента Республики Узбекистан №УП-5046

¹ «Нам нужен мирный и стабильный Афганистан, активно участвующий в экономическом сотрудничестве с соседями» — Шавкат Мирзиёев <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/03/afghan/>

от 19 мая 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружеских связей с зарубежными странами”, №УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, №УП-158 от 11 сентября 2023 года “О стратегии “Узбекистан – 2030”, и постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-4680 от 16 апреля 2020 года “О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в сфере востоковедения”, а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологии республики. Данная диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей в ходе социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информатизированного государства и демократического общества, и пути их реализации”.

Степень изученности проблемы. Социально-политические процессы в Афганистане, их геополитическая значимость, тюркский социум в Афганистане, в том числе международные отношения с Турцией довольно подробно изучались в различных зарубежных научных центрах, высших образовательных учреждениях и ведущих исследовательских институтах и значительная часть их исследований была подвергнута нашему изучению и анализу. В ходе анализа различных документальных источников и научной литературы о афгано-турецких отношениях мы условно разделили их на следующие группы:

К первой группе можно отнести труды ряда отечественных историков и политологов, таких, как С.Сафоев А.Хайдаров, С.Буронов, Р.Рашидов, Ш.Акмалов, А.Умаров, Н.Туляганова². В своих научных исследованиях они достаточно подробно осветили проблематику Афганистана. Однако исследования по данной тематике показывают, что в отечественном историковедении мало научной литературы и фундаментальных исследований, непосредственно изучающих проблемы афгано-турецких отношений. К таким немногочисленным работам можно отнести некоторые

